

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2021-5**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2021**

<http://buxdu.uz>

Шерматов М.Р., Ботиров Э.А. Фарбий Фарғона худудиди шарқ мевахўри ( <i>Grapholitha molesta</i> Busck.) ва ўрик тунлами ( <i>Calymnia subtilis</i> Stgr.) нинг биологиясига оид маълумотлар	108
<b>ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ</b>	
Egamova D.A., Mahmudov M.M., Safoyev D.E. O'zbekistonda yaylov yerlari eroziyaga uchrashining asosiy omillari	114
Egamova D.A., Mahmudov M.M., Safoyev D.E. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni takomillashtirish	116
Hamidov F.R., Adizov Sh.B., Mahmudov M.M. Agrar sektorni rivojlantirishda dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa yer egaliklarining o'rni	118
Sharifov H.Sh., Ramazonov O. Avtomatlashtirilgan sug'orish tizimida zaxira suvlarining satxini rostlash	121
Алиқулов Э.О., Эргашев О.Р. Ўрта толали ғўза популяциялари айрим морфоҳўжалик белгилари кўрсаткичларининг фенотипик намоён бўлиши	124
Исломов И. Влияние режимов орошения и минерального питания на урожай люцерны первого года стояния в условиях почвы темного серозема Оби Киикской долины	126
Махкамова Д.Ю., Абдужалилова О.Х. Чўл худуди тупроқларнинг шўрланиши, сизот сувлари ва сифат таркиби	129
Сапарниязов И.А. Қорақалпоғистон шароитида ширин маккажўхори ўстириш технологияси	133
Сафаров А.А., Эргашев А., Хайитова Ш., Маликов Ш. Уруғли пахтани пахта пункти ва пахта заводида сақлаш даврида пахта толасига харорат ва намликнинг таъсири	135
Султашова О.Г., Алламуратов М.О., Калабаев С.Б., Султашов Р.Г. Амударё сув сатҳини гидрологик тенденция усулида қисқа муддатли прогнозлаш	140
Эргашев О.Р. Бошланғич ашё ғўза навлари авлодлари фенотипида хўжалик белгилари кўрсаткичларининг намоён бўлиши	143
Юнусов Р., Салимова Х.Х., Рўзиев У.Х., Атаева З.А. Қоровулбозор тумани суғориладиган тупроқларининг физик-кимёвий хоссалари	148
<b>ТЕХНИКА ФАНЛАРИ</b>	
Каландаров Б.С., Сетмаматов М.Б., Самандаров Ш. Проектирование и режим сушки фруктов в гелиофруктосушилке теплицы	152
Тешабоев А. Анализ адсорбционной очистки сточных вод апо «Узметкомбинат»	154
Турсунова Н.Н. Изменение интенсивности процесса дыхания при хранении масличных семян	157
<b>ТАРИХ ФАНЛАРИ</b>	
Akramov D.F. O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosati	160
Allamberganova M.R. O'rxun-enasoy bitiklarida ayrim hayvon nomlarining ishlatilishi	163
Бахранов Ш.Т. Город Коканд – центр торгово-экономической жизни Туркестанского генерал-губернаторства	166
Мирзаев А.А. Диний толерантлик туризми ва жахон тажрибаси	170
Каллибекова З.Б., Пирниязова Т.О. 1917-1920 йиллар тарихий воқеалари замондошларининг баҳолашида	173
Каримов Я.А. Кемачиликнинг вужудга келиши тарихидан	178
Қурбанова Ш.Дж. Вклад Шарафа Рашидова в развитие международных и культурных связей Узбекистана	181
Сайтқосимов А., Исахонов Ж. Соҳибқирон Амир Темурнинг ижтимоий адолат ҳақидаги таълимотлари	183
Сувонов Л. Жаид маърифатпарварлари даври матбуотининг ўзига хос жиҳатлари	186
Тўраев Қ.Ф. Ўзбек миллий мусиқа санъатининг ривожиди Бухоро шарқ мусиқа мактабининг тутган ўрни	192
Унгалов А.А. Араб халифалигига муносиб қаршилик кўрсатган саркарда	195
Холдоров Х. Фарғона водийсида боғдорчилик тарихи ва унинг туризмдаги ўрни	199
Шарипов Ш.З. Миллий – маданий марказлар миллатлараро тотувликни ривожлантиришнинг муҳим омили	203
Юсупов Х. Хоразм воҳасида радиони пайдо бўлиши ва шаклланиш тарихи	205
Якубов А. Хива хонлигида марказлаштириш сиёсати: Абулғози Баҳодурхон фаолияти мисолида	208
Яхшиев А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур – теурийлар даври ренессанси анъаналарининг илғор давомчиси	212
<b>ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
Ахмедов З.Қ. Урганч шаҳрида кичик саноат зоналарини ташкил этиш ва бошқариш	217
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

ТАРИХ ФАҲЛАРИ

UO'K 93/94

**O'ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATI YURITGAN MADANIY SIYOSATI***D.F. Akramov, o'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** *Ta'limning dolzarblik xususiyati, davlatning farovonligi ta'limning rivojlanganlik darajasiga ko'ra bo'lishi, sovetlarning madaniy islohotlari, sovetlar davrida ta'lim muassasalari holati qayd etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *loyiha, texnikum, o'quv kurs, mafkura, pozitsiya, qo'mita*

**Аннотация.** *Актуальность образования, благополучие государства зависит от уровня развития образования, культурных реформ Советского Союза, состояния учебных заведений в советское время.*

**Ключевые слова:** *проект, техникум, учебный курс, идеология, позиция, комитет*

**Abstract.** *The urgency of education, the state's well-being depends on the level of development of education, the cultural reforms of the Soviets, the state of educational institutions during the Soviet era.*

**Keywords:** *project, technical school, training course, ideology, position, committee*

*Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.*

**Shavkat Mirziyoyev**

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat –e'tibori markaziga o'tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizni taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashish mumkin [1].

Har bir narsa yoki tarixda sodir bo'lgan voqea-hodisa mavjud bo'lishi yoki taraqqiy etishi undagi muhit, shart-sharoitning nechog'li mavjudligi bilan o'lchanadi. Tarix guvohlik beradiki, davlat va jamiyat rivoji ham aynan shu shart –sharoitning qanday yaratilganligi bilan bog'liq holda shakllanadi. Tabiat qonuni borki, mavjudlikdan rivojlanish kuzatiladi, yo'qlikdan parokandalik tarkib topadi. Shuning uchun ham bevosita O'zbekistonning rivojlangan davlatga aylanishi, undagi ta'lim-tarbiya muhitining, shart-sharoitining mustahkam barpo etilishi, uning taraqqiyotini belgilaydi. Shu borada ilm –fan va ta'lim –tarbiya sohasining moddiy –texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlarning mashaqqatli va ma'suliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi [2]. O'zbekiston uzoq vaqt davomida asrlarga teng an'ana va qadriyatlar hukm surgan,

bu asriy boyliklarni yakun topishi jarayoni sovet hokimiyati tomonidan XX asrning 20–30-yillarida olib borilgan madaniy islohotlari natijasida bo'lib, dastlab bu jarayon ta'limning ilk bosqichi xalq ta'limi sohasida o'ziga xos murakkablik, qiyinchilik bilan kechdi. 20-yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari faol boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishga yo'l tutar ekan, bundan ko'zlagan asosiy maqsadlari o'lkada xalq ta'limi bo'g'inarini ravnaq toptirish, yoppasiga xalq savodxonligiga erishish, ilm-ma'rifat chashmalaridan hammani to'la bahramand etish emas, balki eng avvalo, yurt farzandlari ongiga, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqur singdirish va shu yo'l bilan o'zlariga quloq qoqmay xizmat qiladigan «mo'min-qobil» avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi.

Sovetlar avval boshda O'zbekistondagi murakkab vaziyatni, mahalliy xalq kayfiyati va ruhiyatini, uning o'ziga xos milliy an'analari, islomiy qadriyatlarini bir qadar hisobga olib, bu yerda eski va jadid usulidagi maktablar yoki madrasalarning ham bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishiga monelik ko'rsatmadi. Buning orqasida bu o'quv dargohlari navqiron avlodga ta'lim berish, ulug' bobokalonlar merosi va sharqona odob, axloq ruhida tarbiyalashda o'z ulushini qo'shib bordi. Lekin sovet arboblari va mafkurachilarining bu vaqtinchalik taktikasi uzoqqa bormadi. Ular o'lka hayotiga moslashib, biroz tomir yozib olgach, 20-yillar o'rtalaridan e'tiboran o'zbek xalqi ma'naviy hayotining ko'p zamonlar uzviy tarkibiy qismi bo'lib kelgan eski maktab va madrasa ta'lim-tarbiya tizimini barham toptirdi. Uning ko'p sonli ziyoli vakillari, mullalari-yu mudarrisleri faoliyati to'xtatib qo'yildi. Ularning taqdir-qismati hayotning og'ir sinovlariga duchor etildi.

Sovet hukumati mahalliy oddiy xalq ishonchini qozonish, eng avvalo, kambag'allar, yo'qsillar farzandlarini o'qitish, ularni savodli, bilimli qilish uchun o'zining dasturiy maqsadiga javob beradigan sovetcha ta'limni rivojlantirishga asosiy e'tibor berdi. 20-yillarda O'zbekiston hayotidan muhim o'rin olgan birinchi va ikkinchi bosqich maktablari shunday ta'lim berishga mo'ljallangan bilim dargohlari edi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish, uning yangi tuzumga xayrixohligini kuchaytirish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli hududlarida son-sanoqsiz savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilib faoliyat ko'rsatdi. Ularga turli yoshdagi kishilar, erkaklar va ayollar jalb qilinib, o'z savodlarini chiqardilar. Jumladan, 1928-1932-yillarda O'zbekistonda jami 700 ming nafar kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1933–1937-yillarda 1,4 mln kishini tashkil qildi. Respublikada boshlang'ich ta'lim tizimining joriy etilishi, keyinroq 7 yillik ta'limga o'tilishi ham xalq ta'limi sohasidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Maktab qurilishi, uning malakali o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlanishi, o'quvchilar soni kun sayin o'sib bordi. Sovet davri statistik ma'lumotlariga qaraganda, agar 1924/25-o'quv yilida O'zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib bunday maktablar soni 5504 tani tashkil etadi [3].

O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan siyosat natijasida ko'plab 1926 yillarda sovet maktabi qurilishiga milliy o'qituvchilar ham jalb qilindi. Masalan, o'sha davrning tajribali o'qituvchilaridan Okilxon Sharafiddinov, Jura Odilov, Tuxtanzar Shermuxamedov va boshqalar o'zbek sovet maktabini tashkil etish sohasida ish olib bordilar.

1920 yilning 24 dekabrda Turkiston Xalq Komissarlari Kengashining qaroriga muvofiq «Turkiston hunar-texnika ta'limi qo'mitasi» tashkil topdi. Bu qo'mitaning asosiy maqsadi hunar bilim yurtlari, turli kasblar buyicha qisqa kurslar tashkil etish va bu o'quv muassasalarida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun ishchi mutaxassislar tayyorlashdan iborat bo'ldi. 1920—1921 o'quv yilining o'zida Turkiston hunar-texnika ta'limi tizimida 32 ta o'quv yurtlari tashkil topib, unda respublikamizda yashovchi turli millat vakillaridan 3170 o'quvchi tahsil oldi. Asosiy e'tibor xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ishchi mutaxassislar tayyorlash ishiga qaratilib, yoshlarning turli kasblarni egallashlari uchun hunar-mehnat maktablari, fabrika-zavod o'quvi tashkil etildi. Shu maqsadda hunar-texnika ta'limi tizimini, o'quv yurtlarining faoliyatini, ulardagi mutaxassisliklarni takomillashtirish davr talabiga aylandi. Respublika hukumati ishchi mutaxassislar tayyorlashda asosiy e'tiborni mahalliy millat vakillariga qaratdi. Buning natijasida zavod va fabrikalarda ishchilarning 1925-26 yillarda sanoat ishchilarining soni 11408 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1928-

1929 yilda bu ko'rsatkich 23842 kishini tashkil etdi. 1929-30 yillarda sanoat uchun ishchi-mutaxassislar tayyorlash asosan fabrika-zavod o'quvi kurslarida o'quvchilarning 33 foizga oshdi [4]. 1927 yildan Toshkent, Buxoro, Nukus, Namangan, 1930 yildan Kattaqo'rg'on, Termiz, Shahrisabz, Beshariq va Quva qishloq xo'jaligi texnikumlari faoliyat ko'rsata boshladi. Respublika sanoati uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashda Toshkent industrial texnikumi (e'tiboran politexnikum), qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashda esa Toshkent paxta tozalash texnikumi, Samarqand qishloq xo'jalik-sabzavotchilik texnikumlari muhim rol o'ynadi. 1928—1937 yillarda respublika texnikumlari 930 ming mutaxassislar tayyorladi. Bu davr ichida kunlarda ishlayotgan o'qituvchilar soni 2,7 barobar ko'paydi 1927 yildan Toshkent, Buxoro, Nukus, Namangan, 1924—25 o'quv yilida O'rta Osiyo Davlat universiteti ishchi fakultetining (fakultet 1939 yilgacha faoliyat ko'rsatgan) ikki (kechki va kunduzgi) bo'limida 25 millatga mansub 889 talaba tahsil olar edi. Ularning aksariyati ishchi va dehqon farzandlari edi. 1921 yilda universitetning 7 fakultetida 2053 talaba bilim sirlarini egallay boshladi. Unda 54 professor, 207 o'qituvchi, 95 ilmiy xodim, 71 ilmiy-texnik xodim xizmat qildi. 1929-1931 yillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda tajriba to'plagan ayrim fakultetlar negizida xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida alohida oliy o'quv yurtlar tashkil etildi. Toshkentda tibbiyot, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash politexnika, pedagogika institutlari tashkil etildi. Universitet hisobidan O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda 15 ta oliy o'quv yurti vujudga keldi. Turkiston Davlat universitetida 1940 yilda 45 kafedra faoliyat ko'rsatib, u 18 mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlab bera boshladiz. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojida 1935 yilda tashkil etilgan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti katta rol o'ynadi. 1935-36 o'quv yilida institutda 86 professor-o'qituvchi ishlagan bo'lsa, 1940-41 o'quv yilida ularning soni yetdi. Shu yillar ichida talabalar soni 3927 oshdi (sirtqi bo'lim talabalari bilan). U 1940 yilga qadar 2 mingga yaqin o'qituvchi tayyorladi. Ularning 60 foizi o'zbeklar edi. 30-yillarda O'zbekistonda yangidan kino san'ati shakllanib bordi. Uning yorqin ifodasi sifatida davrda yaratilib ekranlarga chiqarildi. «Qasam», «Ravot qashqirlari», «Azamat» singari filmlarni tilga olib o'tish joizdir. Ularni yaratishda Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayev, Yo'ldosh A'zamov, Rahim Pirmuhamedov singari ajoyib o'zbek kino ustalarining xizmatlari bezagan. Abror Hidoyatov Otello ro'lida 20-30-yillarda respublikada ko'plab madaniy inshootlar qurildi. 1932-yilda respublikada 707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 40 kinoqurilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey faoliyat ko'rsatdi [5]. O'zbekistonda madaniy qurilish jarayonining chuqurlashib borishiga mamlakatda avj olgan totalitar tuzum zo'rvonligi va bedodligi jiddiy to'sqinlik tug'dirdi. Bu davrda o'zbek adabiyoti ham jiddiy hayotiy sinovlar jarayonini boshdan kechirdi. O'zining boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan bu adabiyot xalq ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy zamon muammolarini idrok etish hamda hal etishda o'z hissasini qo'shib bordi. Sovetlar insonlarning ongi, shuuriga ta'sir etish, ularni ma'nan va ruhan tarbiyalashda adabiyot va san'atning o'rni beqiyosligini hisobga olib, uni yangi sotsialistik qurilish xizmatiga faol jalb etishga intildilar. Ularning nazarida adabiyot kuchli mafkuraviy qurol sifatida yangi tuzumni mustahkamlashga xizmat qilishi, millionlar ommasini shungada va etmog'i kerak edi. VKP(b) MQning 1925-yil 18-iyunda qabulgan «Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida qarorida shu ruh, g'oya aks ettirilgandi. Shu tariqa sovet hokimiyati har bir sohani o'zgartirish bilan bir qatorda ularning mazmun –mohiyatini sotsializm ruhi bilan sug'orib, ko'plab partiya g'oyalariga va mafkurasiga xizmat qiladigan insonlarni vujudga keltirish bosh maqsad qilib, boshqaruvning barcha bo'g'inlari ham shunga yo'naltirildi. Aholining turli qatlamlarida bu harakatlarga qarshi imunitet bo'lsada, o'zlarining iqtidorlarini ko'rsatib, sitqidildan yurt farovonligiga o'z hissalarini qo'shishda davom ettirdilar. Ma'lum bir davrda bu iqtidorlarni bug'ish uchun ham taqiblar kuchaytirildi, ammo aholining asrlar davomida yaratgan ma'naviy boylklari eskirmadi, yo'qolmadi va o'z ijobiy belgisini ko'rsatib insonparvarlik tamoyillida natijalar ko'rsatdi. Bu davrda yashagan chinakam istedad egalari ko'rsatish va qum zarralarida burkangan ma'naviy ajdodlar merosini qayta tiklash hamda ularning nomini oltin zarvaraqaqqa bitish uchun ko'pgina olimlar hissa qo'shishgan. . Bu davrni o'rganishga hissa qo'shgan olimlar Qodirov E “O'zbekistonda umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixidan”, Sharipov F “O'zbekistonda oliy ta'limning rivojlanishi”, Qoriniyozov T “Sovet O'zbekistoni mananiyati tarixidan ocherklar”, Rajabov S “O'zbekistonda Sovet maktabi tarixiga doir”, Ochilov M



“O‘zbekiston komsomolining umumiy- majburiy ta‘lim uchun kurashi”, Oripov F “O‘zbekistonda savodsizlikni tugatilishi”, Inayatov N “ O‘zbekistonda oliy ta‘lim hamda fanning rivojlanishi”, Azamova R “Sovet O‘zbekistonida xalq maorifining ravnaqi”, Sodiqov S” O‘zbekistonda oliy talimning rivojlanishi”, Q.Ergashev “O‘zbekiston xalq ta‘limining rivojlanish tarixi” nomli asarlar yozilgan. Shu tadqiqotlar natijasida xalqimiz tarixi va sovet hokimiyatning asl yuzi ochiq, xolis, tarixiylik nuqtayi nazaridan o‘rganildi hamda hozirgi yosh avlodga yetkazishda dastur ul amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”. 2017. 488b.
2. Mirziyoyev Sh. M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.T.: “O‘zbekiston”. 2017. 592b.
3. Mirziyoyev Sh. M. “Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” .T.: “O‘zbekiston”. 2019.
4. Narzulla Jo‘rayev “Tarix falsafasining nazariy asoslari” – T.: “Ma‘naviyat”.2008.459b.
5. Ergashev Q. O‘zbekiston xalq ta‘limining rivojlanish tarixi.. T. “O‘qituvchi” 1998.80b.
6. Ergashev F, Obidov D. Milliy ta‘lim tarixidan. T.: “Akademiya”, 1998.65b.